

GEOGRAFIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING O‘QUV-BILISH FAOLLIGINI OSHIRISH VA UNGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

¹Jo‘rayeva Shaxnoza Abdumalik qizi, ²Mirzahmedov Ismoiljon Karimjon o‘g‘li

¹Toshkent viloyati, Chirchiq shahar 15-IDUM geografiya fani o‘qituvchisi,

²Namangan davlat universiteti dotsenti v.b.

E-pochta: ismoil_landsat@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada geografiya darslarida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligini oshirish tamoyillari va unga ta’sir etuvchi salbiy hamda ijobiy omillar to‘g‘risida tahlillar olib borilgan. Shuningdek, o‘quv-bilish faolligini o‘rganganlarni tushunish, xotirada saqlab qolish, bilimlarni qayta ishlash, ularni namuna bo‘yicha amalda qo‘llash usullarini egallaganligini tavsiflovchi faol xotirlash; o‘rganganlarning ma’nosini anglab yetishga intilish kabi darajalarda orqali aniqlab olish usullari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘quv-bilish faolligi, tamoyillar, zamonaviy sharoitlar, zamonaviy ta’lim, malakali mutaxassis sifati, Faollik tushunchasi, axborotlashuv.

ПОВЫШЕНИЕ УЧЕБНОЙ АКТИВНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ НА УРОКАХ ГЕОГРАФИИ И ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НЕЕ

¹Жураева Шахноза Абдумалик кизи,

²Мирзахмедов Исмоилджон Каримджон угли

¹Ташкентская область, г. Чирчик, 15-ИДУМ учитель географии,

²Наманганского государственного университета доцент и.о.

Электронная почта: ismoil_landsat@mail.ru

Аннотация: В данной статье проанализированы принципы повышения учебной активности учащихся на уроках географии и влияющие на нее негативные и позитивные факторы. Также активное припоминание, описывающее учебную деятельность, описывающее, что учащиеся овладели способами понимания, запоминания, обработки знаний и применения их на практике по примеру; Методы определения смысла изученного описываются на таких уровнях, как стремление его понять.

Ключевые слова: Учебная деятельность, принципы, современные условия, современное образование, качество квалифицированного специалиста, Концепция деятельности, информация.

INCREASING LEARNING ACTIVITY OF STUDENTS IN GEOGRAPHY LESSONS AND FACTORS AFFECTING IT

Joraeva Shakhnoza Abdumalik kizi, Mirzahmedov Ismoiljon Karimjon ugli

¹Tashkent region, Chirchik city, 15-IDUM teacher of geography,

Namangan state university of docent

E-mail: ismoil_landsat@mail.ru

Abstract: *In this article, the principles of increasing students' learning activity in geography classes and the negative and positive factors affecting it were analyzed. Also, active recall, which describes the learning activity, which describes that the students have acquired the methods of understanding, memorizing, processing knowledge, and applying it in practice according to the example; The methods of determining the meaning of what has been learned are described at levels such as striving to understand it.*

Key words: *Educational activity, principles, modern conditions, modern education, quality of a qualified specialist, Concept of activity, information.*

Kirish.

Xalqaro hamjamiyatda global axborotlashuv zamonaviy jamiyatga xos xususiyat sanaladi, hamda ta'lim tizimining rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lim mazmuniga ham izchil ravishda o'zgartirishlar kiritishni taqozo etmoqda. Qolaversa, zamonaviy bilimlarning ko'lamini, ularni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj shaxsdan tez sur'atda yangi bilimlar bilan tanishish, ularni tezkor o'zlashtirishni talab etadi. Natijada, zamonaviy sharoitda yoshlar o'rtasida asosiy ta'limiy maqsadlar – o'quv-bilish faoliyatini rivojlanishi, malakali mutaxassis sifatida shakllanish, kasbiy takomillashuvga erishish, ta'lim oluvchilarda hayotiy va kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun kerakli ma'lumotlarni izchil, uzluksiz, maqsadli, tizimli o'zlashtirish, ularning maqsadli shakllanishlariga erishish muhim ahamiyat kasb etmoqda [1].

“O'quv-bilish faolligi” tushunchasi pedagogik manbalarda keng qo'llanilib, u bevosita shaxsning ta'lim jarayonidagi ishtirokini belgilaydi. Bizning fikrimizcha, o'quv-bilish faolligi – talabalarning o'quv jarayonida DTSda belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish yo'lida faollik ko'rsatishi hisoblanadi. Tanlangan ob'ektga nisbatan olinadigan bo'lsa, o'quv faolligi talabalarning o'zlarida umumiy hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha DTSda o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni samarali hosil qilishga yo'naltirilgan faoliyatlari darajasini belgilovchi ko'rsatkich demakdir.

Talabalarning o'quv faolligi oliy ta'lim muassasalarida izchil, uzluksiz va tizimli tashkil etiladigan pedagogik faoliyat natijasi sifatida ham ifodalanadi. Zero, zamonaviy ta'limning tashkil etilishiga nisbatan qo'yiladigan ijtimoiy talablardan biri – talabalarning o'quv faolligini yuzaga keltirish orqali ularda mustaqil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash borasidagi tajribani hosil qilishdan iborat [5].

Shaxsning o'quv-bilish faolligi quyidagi darajalarda namoyon bo'ladi: o'rganganlarni tushunish, xotirada saqlab qolish, bilimlarni qayta ishlash, ularni namuna bo'yicha amalda qo'llash usullarini egallaganligini tavsiflovchi faol xotirlash; o'rganganlarning ma'nosini anglab yetishga intilish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni tiklash, mavjud bilimlarni o'zgargan sharoitlarda qo'llash usullarini egallash bilan bog'liq intilishni ifodalovchi faol izohlash; o'rganganlarni nazariy jihatdan anglashga intilish, mustaqil ravishda muammoning yechimini topish, anglashga bo'lgan qiziqishning izchil namoyon bo'lishi.

Adabiyotlar tahlili

O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida o'quv hamda mutaxassislik fanlarini o'qitishda shaxsning o'quv-bilish faolligini oshirish, bu jarayonga nisbatan zamonaviy yondashuvlarni qaror toptirish, ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faolligini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ulardan maqsadli foydalanish yo'llari M.Pozilova, G'.R.Satliqov, B.T.To'xliiev, E.M.Xudoynazarov, L.S.Eliboyeva, A.A.Yusupov, S.Qoraev, M.Qurbonova, MDH mamlakatlari doirasida turli yosh toifasiga mansub ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilishda muammoli va ijodiy topshiriqlar, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, amaliy mashg'ulotlarning o'quvchilarning bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati, ta'lim oluvchilarda geografiya fanlari asoslarini o'rganishga bo'lgan qiziqishni oshirish muammolari Ye.A.Belovolova, T.V.Viteyko, I.V.Dushina, Yu.A.Kaplunova, O.V.Krilova, A.A.Letyagin, I.V.Nikishina, D.V.Novenko, N.K.Panteleyeva, Ye.A.Popova, N.N.Sdasyuk, N.N.Skatova, I.Yu.Utkinalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'rganilgan [3].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqola geografiya darslarida o'quvchilarning o'quv-bilish faolligini oshirish tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili bayon etilgan.

Tahlil va natijalar

Faollik tushunchasi pedagogika, sotsiologiya, psixologiyada uchta bir xil emas hodisani belgilash uchun ko'rib chiqiladi:

- individning muayyan faoliyati bilan belgilanadigan;
- sustlikka qarama-qarshi holat, biroq bu dolzarb faoliyat bo'lishi shart emas, ba'zan esa faoliyatga tayyorlik, bu tolerantlik, hushyorlik darajasi, biror harakatni amalga oshirish yoki muloqot payti bilan bog'liq holat;
- tashabbuskorlik, bu holatda sub'ekt o'z tashabbusi bilan harakat qilganligini qayd etish mumkin.

Faollik shaxs uchun murakkab va ahamiyatli hosila sifatida turli talqinlarga ega. Pedagogikada inson faolligi muammosi faoliyatning metodologik nazariyasi doirasida yaxshi o'rganilgan, bunda o'qitish va ruhiy rivojlantirish, ong va faoliyat birligi mutanosibliklarining asosiy tamoyillari belgilangan. Xususan, L.S. Vigotskiy, faollikning umumiy va rasmiy alomatlaridan kelib chiqib, energetik va ichki imkoniyatlarni o'zaro ta'sirga ajratadi, ushbu o'zaro ta'sirning tezligi va izchilligi, o'zaro ta'sir jarayonida foydalaniladigan vositalar va usullarning turli-tumanligi hamda uning sur'atini ochib beruvchi boshqa alomatlarini ajratib beradi. U inson faoliyatining mazmunli va natijaviy jihatini ham hisobga oladi [2].

Keyingi tadqiqotlarda ushbu tushuncha quyidagicha talqin etiladi: «Shaxs faolligi – insonning qobiliyati bo'lib, muloqotida namoyon bo'ladi, olamda ijtimoiy ahamiyatli o'zgarishlarni amalga oshiradi».

Maktab o'quvchisining o'quv-bilish faolligini rivojlantirishga yordamlashuvchi eng qiziqarli o'quv jarayonini tashkil etish shakli «bir-birini ichki qabul qilishga asoslangan muloqot shakli»dagi suhbat hisoblanadi. Suqrot

suhatlari, bahslar, «matematik bellashuv» o'yinida «ochiq joylarni yopish» o'quvchilarning o'quv-bilish faolligi kuchaytirishga yaqqol misol bo'ladi.

O'quvchilarda tashkil etilayotgan ta'lim samaradorligi geografiya o'quv fanining dastlabki asoslarini puxta o'zlashtirish bilan belgilanadi. Uzlüksiz ta'lim tizimining bu bosqichida o'quvchilarga fan va uning asoslari haqidagi bilimlarning muayyan tizim asosida berilishi, o'quv faoliyatining o'quvchilar faolligi, mustaqilligiga asoslanishi ularda fanni bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantiradi. Ta'lim jarayoni sharoitlarida ma'lum obyekt, hodisa va jarayonni kuzatish, kichik amaliy tajribalarni tashkil etish kabi metodlar bilan boyitilishi o'quvchilarda shakllangan qiziqish darajasini oshiradi va uning barqaror xususiyat kasb etishiga zamin yaratadi [4].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining geografiya darslarida bilimlarning o'qitilish holatini o'rganish va tahlil etish bu jarayonda bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Bizning nazarimizda muammolarning sabablari quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

- o'qituvchilarning aksariyati o'quv jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy, texnologik va kompetensiyali yondashuv ko'nikmalariga, pedagogik texnologiyalar, o'quvchilarda bilishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish to'g'risidagi metodik majmualarga ega emasliklari;

- zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan o'quvchilarni tayyorlashga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarning to'liq yaratilmaganligi;

- o'qituvchilar uchun mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha yangi avlod o'quv-metodik materiallarining, xususan, interfaol o'quv majmualarining yetarli emasligi;

- o'quvchilarning o'quv-bilish kompetensiyalarini mustaqil ishlarni tashkil etish asosida shakllantirishga hamda ijodiy faolligini oshirishga yetarli darajada e'tibor qaratilmayapganligi;

- o'quv materialining mazmuni rivojlantiruvchi o'qitish prinsipini amalga oshirishni to'liq ta'minlanmayotganligi hamda muammoli topshiriqlar soni yetarli emasligi;

- o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishda o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malaka va ko'nikmalarining yetarli emasligi;

- o'quvchilarda o'quv-bilish kompetensiyalarini mustaqil ishlarni tashkil etish asosida shakllantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqilmaganligi va boshqalar.

O'quv-bilish faolligi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin va ko'pincha ayrim mashqlarni bajarishda aks etadi. Agar mashq bo'lmasa, u mustaqil kashf etiladi. Ba'zan faollik savollar shaklida namoyon bo'ladi. Odatda o'quvchi o'z fikrlarining tasdig'ini izlaydi. Faollikning soddaroq shakli – faoliyatning vaqtincha to'xtalishi, tanaffusdir. O'quv-bilish faolligi tushuniladigan material shakliga bog'liq bo'ladi.

Mustaqillik, yakka tartibdagi ijodkorlik va shu kabilar ham o'quv-bilish faolligining namoyon bo'lish shakllari hisoblanadi. O'quv-bilish faolligining

rivojlanish shakllari hayotiy yoki laboratoriya sharoitidagi muammolarni hal etish shaklida amalga oshiriladigan laboratoriya va amaliyot mashg'ulotlari hisoblanadi.

Bunda o'quv-bilish faolligi jarayoni amaliy fikrlash va tadqiq etish sifatida ifodalangan. A.M.Matyushkinning fikricha, «O'quv-bilish faolligini rivojlantirish guruhlar fikrlashi vaziyatida tashkil etilgan didaktik suhbat sharoitida tarbiyalash sifatida amalga oshiriladi».

Maktab o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirishga turli omillar ta'sir ko'rsatadi:

- *yuqori darajali omillar (umumiy)*: odamlar turmushining ijtimoiy-iqtisodiy shartlari, ma'naviy madaniyat, ommaviy axborot vositalari va targ'ibotning ta'siri;
- *o'rta darajali omillar (o'ziga xos)*: mintqa iqtisodiy, demografik rivojlanishining o'ziga xosliklari, mintaqadagi tadbirkorlik madaniyati darajasi, oila va boshqalarning madaniy-ta'lim saviyasi, bolalar tashkilotlari bilan hamkorlik qilishga tayyor korxonalar, firmalarning mavjudligi;
- *past darajali omillar (yakka)*: o'quvchilarning yoshi bilan bog'liq omillar, shaxsiy xarakter omillari: moyilliklari, qobiliyatlari, shaxs sifatida qiziqishlari va psixofizik fazilatlarini, o'qituvchining ilmiy-nazariy, uslubiy va psixologik-pedagogik tayorgarligi va uning amaliy-tezkor mahoratga egaligi.

Xulosalar

Ko'pgina tadqiqotchilar qayd etishicha, o'quv-bilish faolligi pedagogik hodisa sifatida – ikki tomonlama o'zaro bog'langan jarayon: bir tomondan, bu o'quvchining o'zi-o'zini tashkil etishi va o'zi-o'zini namoyon etishi; boshqa tomondan - pedagogning o'quvchi o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishdagi alohida urinishlari natijasidir. Bunda shuni unutmazlik lozimki, pedagog urinishlarining yakuniy natijasi o'quvchining maxsus tashkil etilgan faolligini uning o'zinikiga aylantirilishidan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги «Халқ таълими тизимида бошқаришнинг янги принципларини жорий этиш чора -тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3931-сон қарори.
2. Константинова С.И. Формирование учебно - познавательной компетентности у учащихся старшей профильной школы: авт. дис. канд. пед. наук. -СПб., 2006. -22 с.
3. Тожибоева, Г.Р. (2020). Психолого-педагогическая компетентность учителя начальных классов. Science and World, 1(77), 32-33.
4. Щукина Г. И. Активизация познавательной деятельности учащихся в учебном процессе: Учебное пособие для пед. ин-тов. -М.: Просвещение, 1979.-160 с.
5. Avlaev O.U., Burkhanov, A.A., Ismoilova, D.M., & Norkuzieva M.A. (2020). Factors Affecting the Intellectual Dynamics of the Individual. Test Engineering & Management, 83, 693-702.